

Situatsion markaz uchun uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov o'tkazish muddati uzaytirilgani haqida e'lon

“Tenge Bank” ATB situatsion markaz uchun uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov e'lon qiladi. Tanlov situatsion markaz uchun uskunalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi tashkilotni aniqlashga qaratilgan.

Ishtirok etish shartlari:

Takliflar tashqi konvertida, ichida **“A”** va **“B”** belgilari qo'yilgan konvertlar bilan taqdim etilishi lozim.

Tashqi konvertga qo'yiladigan talablar:

- Tashkilot nomi ko'rsatilishi;
 - Yuridik manzil va aloqa ma'lumotlari ko'rsatilishi;
 - Tanlov nomi ko'rsatilishi;
 - Barcha konvertlar (tashqi konvert, **“A”** konverti va **“B”** konverti) tanlov ishtirokchisi tomonidan muhrlanib, imzolangan bo'lishi shart.
1. Tanlov situatsion markaz uchun uskunalar yetkazib berish va elektr uskunalariga xizmat ko'rsatish tajribasiga ega bo'lgan barcha yuridik shaxslar uchun ochiq.
 2. Ishtirokchilar **“A”** belgisiga ega konvertida quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari shart:
 - Tanlovda ishtirok etish uchun ariza;
 - Yetkazib berilishi rejalashtirilgan situatsion markaz uskunalarining texnik tavsifi va xususiyatlarini, shuningdek ishlab chiqaruvchi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan texnik taklif;
 - Situatsion markaz uskunalarini yetkazib berish sohasidagi malaka va tajribani tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan mahsulotlarga oid litsenziya va sertifikatlar;
 - Tavsiyanomalar.
 3. Ishtirokchilar **“B”** belgisiga ega konvertida quyidagilarni taqdim etishlari shart:
 - Situatsion markaz uskunalarining narxi, to'lov shartlari, yetkazib berish muddati, kafolat muddati va yetkazib berish usulini ko'rsatgan tijorat taklifi.
 4. Yetkazib beriladigan situatsion markaz uskunolari barcha texnik standartlar va xavfsizlik me'yorlariga, shuningdek funktsionallik va uzoq muddatli foydalanish talablariga javob berishi lozim.
 5. Situatsion markaz uskunolari qulay foydalanish, ishonchli ishlash hamda tarmoqqa xavfsiz ulanish va foydalanishni ta'minlashni inobatga olgan holda loyihalashtirilgan va ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.
 6. Mahsulot ekologik standartlar va energiya samaradorligi talablariga javob berishi, energiya yo'qotishlarini minimal darajaga tushirgan holda yuqori unumdorlikni ta'minlashi muhimdir.
 7. Texnik parametrlar ilova qilinadi.

Ishtirok etish shartlariga rioya qilinmagan taqdirda, Tanlov komissiyasi ishtirokchining arizasini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Tijorat takliflarini topshirishning oxirgi muddati: 12.01.2026 yil.

Tijorat takliflari rus tilida, texnik topshiriq talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan holda, 2026-yil 12-yanvar kuni soat 18:00 ga qadar muhrlangan konvertlarda **“Tenge Bank” ATB Tanlov komissiyasiga** quyidagi manzil bo‘yicha topshirilishi lozim:
Toshkent shahri, I. Karimov ko‘chasi 1A (Nest One, D bloki), “Tenge Bank” ATB kantselyariyasi.

Aloqa ma’lumotlari: Bank resurslari departamenti.

Tanlov g‘olibi taklif etilgan uskunalar sifati, narxi, yetkazib berish muddati va kafolat shartlari asosida aniqlanadi. Tanlovda g‘olib bo‘lgan yetkazib beruvchi situatsion markaz uchun uskunalarini yetkazib berish huquqiga ega bo‘ladi.

Ariza va takliflaringizni kutib qolamiz!

Situatsion markaz uchun uskunalarining texnik parametrlari

1) Teleuskunalar

1. Devorga o‘rnatish kronshteyni bilan QLED Smart 55 dyuymli televizor, yangilanish chastotasi 60 Hz dan yuqori – **16 dona**.
2. Ishchi stansiya uchun 27 dyuymli 2K LCD monitor, 120 Hz dan yuqori – **2 dona**.

2) Kompyuterlar

1. Ishchi stansiya – 2 dona

- Protsessor: Intel 7-avloddan yuqori, kamida 16 yadroli, overklok imkoniyatiga ega, integratsiyalashgan grafik protsessorisiz;
- Ona plata: Asus yoki Gigabyte, Z-seriyali chipset, ATX yoki Micro ATX formatida, DDR5 xotira qo‘llab-quvvatlanadi;
- Operativ xotira: DDR5, 5500 MHz dan yuqori, 2×16 GB (jami 32 GB);
- Ichki xotira: NVMe SSD 1 TB;
- Videokarta: Nvidia RTX 4060 yoki undan yuqori (yoki Ti), 8 GB dan ortiq;
- Sovitish: suyuqlikli sovitish;
- Quvvat manbai: barcha komponentlar quvvatiga mos, kamida 30% zaxira bilan;
- Komplektatsiya: simsiz Bluetooth klaviatura va sichqoncha, quloqchin yoki mini-kolonka.

2. Statsionar ishchi stansiya (PK) – 14 dona

- Protsessor: Intel 5-avloddan yuqori, kamida 8 yadroli, overklok imkoniyatiga ega;
- Ona plata: B yoki H-seriyali chipset, ATX yoki Micro ATX, DDR4 yoki DDR5 qo‘llab-quvvatlanadi;
- Operativ xotira: DDR4 yoki DDR5, 3200 MHz dan yuqori, 8 GB;
- Ichki xotira: SSD 512 GB;
- Videokarta: 8 GB dan ortiq xotirali, byudjet varianti;
- Sovitish: havo orqali sovitish;
- Quvvat manbai: 30% quvvat zaxirasi bilan;
- Komplektatsiya: simsiz Bluetooth klaviatura va sichqoncha, quloqchin yoki mini-kolonka.
- HDMI kabel 5 metr – **16 dona**
- HDMI kabel 10 metr – **2 dona**

- UTP tarmoq kabeli 2 metr – **16 dona**

3) Videokuzatuv

1. 128 kanalli tarmoq videoregistratori, 24 tagacha SATA HDD ulash imkoniyati bilan – **1 dona;**
2. Videoyozuvlarni kamida 90 kun saqlash uchun 10 TB hajmdagi qattiq disklar – **24 dona.**